
"Shodiyona"da ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari tortildi

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Shodiyona" mahalla fuqarolar yig'ini hududida 800 metr ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari tortildi. Hozirda qurilish-montaj ishlarining yakuniy qismi bajarilmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida 800 mln. so'm mablag' ajratilgan.

2023-06-23 10:13:02